

# Ijarada yashaydigan talabalar holidan xabar olinmoqda

Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti akademik guruhlar tyutorlari ijarada yashayotgan talabalarning yashash sharoiti hamda qish mavsumiga tayyorgarligini o'rganish maqsadida ular yashab turgan xonadonlarga tashrif buyurishmoqda.

Tashrif chog'ida talabalar yashayotgan xonadon egalari bilan suhbat o'tkazilmoqda, shuningdek, is gazidan zaharlanishni oldini olish va texnika xavfsizligi borasida kerakli tavsiyalar berilmoqda.









